

MAKTABGACHA TA'LIMDA MILLIY QADRIYATLAR ASOSIDA TARBIYA BERISHNING AHAMIYATI

AVEZOVA NOZIMA SHERALI QIZI

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 2-kurs talabasi*

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim jarayonida bolalarga milliy qadriyatlar asosida tarbiya berishning ahamiyati, mazmuni va samarali yo'llari yoritilgan. Muallif milliy qadriyatlar — xalqning madaniy merosi, urf-odatlari, an'analari, til va diniy qarashlari orqali yosh avlodda vatanparvarlik, insonparvarlik, mehnatsevarlik, kattalarga hurmat, kichiklarga mehr kabi fazilatlarni shakllantirish zarurligini asoslab beradi. Maqolada o'qituvchi-tarbiyachilarning bu jarayondagi roli, ta'lim-tarbiya dasturlariga milliy qadriyatlarni integratsiya qilish usullari hamda amaliy misollar keltirilgan. Tadqiqot natijalari maktabgacha ta'limda milliy qadriyatlarga tayanish nafaqat bolalarning ma'naviy-axloqiy kamolotiga, balki ularning milliy o'zligining shakllanishiga ham xizmat qilishini ko'rsatadi.*

***Kalit so'zlar.** Maktabgacha ta'lim, milliy qadriyatlar, tarbiya, ma'naviyat, urf-odat, vatanparvarlik, tarbiyachi.*

ЗНАЧЕНИЕ ОБРАЗОВАНИЯ, ОСНОВАННОГО НА НАЦИОНАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЯХ, В ДОШКОЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ

***Аннотация.** В данной статье раскрывается значение воспитания детей дошкольного возраста на основе национальных ценностей, его содержание и эффективные методы реализации. Автор обосновывает необходимость формирования у подрастающего поколения таких качеств, как патриотизм, гуманизм, трудолюбие, уважение к старшим и забота о младших посредством приобщения к культурному наследию, традициям, обычаям, языку и духовным ценностям народа. В статье рассматривается*

роль воспитателя в этом процессе, пути интеграции национальных ценностей в образовательные программы, а также приведены практические примеры. Результаты исследования показывают, что воспитание на основе национальных ценностей способствует не только духовно-нравственному развитию детей, но и формированию их национального самосознания.

***Ключевые слова:** Дошкольное образование, национальные ценности, воспитание, духовность, традиции, патриотизм, воспитатель.*

THE IMPORTANCE OF EDUCATION BASED ON NATIONAL VALUES IN PRESCHOOL EDUCATION

***Annotation.** This article explores the importance of educating preschool children based on national values, as well as its content and effective methods of implementation. The author emphasizes the necessity of fostering qualities such as patriotism, humanism, diligence, respect for elders, and care for the young through the transmission of the nation's cultural heritage, traditions, customs, language, and spiritual values. The article discusses the role of the teacher in this process, the integration of national values into educational programs, and provides practical examples. The findings show that education grounded in national values contributes not only to the moral and spiritual development of children but also to the formation of their national identity.*

***Keywords:** Preschool education, national values, upbringing, spirituality, traditions, patriotism, educator.*

KIRISH. Maktabgacha ta'lim davri bolalarning shaxs sifatida shakllanishida eng mas'uliyatli bosqichlardan biridir. Ushbu davrda bolaning dunyoqarashi, estetik qarashlari, go'zallikni his qilish qobiliyati va badiiy didi shakllanadi. Estetik tarbiya jarayonida musiqa, tasviriy san'at va turli ijodiy faoliyat turlari bolalarning ruhiy, hissiy va intellektual rivojlanishida beqiyos ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tizimida ushbu yo'nalishlarni bir-biri

bilan integratsiyalash, faol pedagogik texnologiyalarni qo'llash orqali estetik tarbiyaning samaradorligini oshirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Asosiy qism. Estetik tarbiya — bu bolalarda go'zallikni his etish, san'at asarlarini idrok qilish, uyushgan mushohada yuritish, ijodiy fikrlash va badiiy didni shakllantirishga qaratilgan pedagogik jarayondir. Maktabgacha yoshdagi bolalar har qanday go'zallikni bevosita sezgi orqali qabul qiladi. Shu sababli estetik tarbiya jarayonida amaliy faoliyat, mushohada, o'yin, musiqani tinglash va rasm chizish kabi faoliyatlar ustuvor o'rin tutadi.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning qiziqish va qobiliyatlari - ma'naviy manbalar va hozirgi zamon talablari va ehtiyojlari nazarda tutgan holda, tarbiyachilarning tarbiyalanuvchi bilan aniq bir maqsadga qaratilgan o'zaro amaliy va nazariy muloqatida namoyon bo'ladi. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalashda uning mohiyatini tushunib yetish kerak. Qadriyatlar o'zining mohiyatiga ko'ra bir necha turga bo'linadi. Jumladan, inson va uning hayoti eng oliy qadriyat hisoblanadi. Inson yuq joyda biron narsaning qadr qimmatini haqida so'zlash bema'nilikdir. Shuning uchun ham inson qadr qimmatini e'zozlash, uning turmushini yaxshilash, bilimi va madaniy saviyasini rivojlantirish, sog'lig'ini saqlash, hayotini himoya qilish davlatimiz siyosatining asosiy yo'nalishini tashkil etadi. Jamiyatimizda ro'y berayotgan tub o'zgarishlarning, islohotlarning barchasi kishilar hayoti to'q, boy, go'zal bo'lishi, inson o'zini chinakam erkin his etishi, o'z mehnati natijasining, o'z taqdirining, o'z mamlakatining egasi bo'lishini ta'minlashga qaratilgandir.

Hozirgi zamon ta'lim tizimi bolalarni nafaqat zamonaviy bilimlar bilan ta'minlashni, balki ularga milliy qadriyatlarni o'rgatishni ham o'z oldiga muhim vazifa sifatida qo'yadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari bu borada alohida o'rin tutadi, chunki aynan shu davrda bolalarning dunyoqarashi, axloqiy va estetik didi, milliy qadriyatlar va urf-odatlariga nisbatan munosabati shakllanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun milliy qadriyatlarni o'rgatish, ularni o'z xalqining tarixi, madaniyati, an'analari bilan tanishtirish, eng avvalo, ularning kelajakdagi shaxsiyati

va jamiyatga bo'lgan munosabatini belgilaydi. Bolalar tarbiyasida milliy qadriyatlarni asosiy tamoyil sifatida qabul qilish, ularning ruhiy rivojlanishini, mehnatsevarlik, halollik, vatanparvarlik kabi axloqiy fazilatlarni shakllantirishga yordam beradi. Shu nuqtai nazardan, maktabgacha ta'lim tashkilotlarining o'zgaruvchan va zamonaviy ta'lim metodlariga mos ravishda milliy qadriyatlarni bolalarning ongiga singdirishdagi roli juda katta. Tarbiyaviy jarayonlarda milliy qadriyatlarni muhim o'rin tutgan tushunchalar sifatida olish, bolalarga o'z xalqining qadriyatlariga hurmat, uning tarixiy yutuqlari va madaniy boyliklarini qadrlashni o'rgatadi. Ushbu maqolada, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida milliy qadriyatlar asosida bolalarni tarbiyalashning ahamiyati, unga oid metodik yondashuvlar va amaliyotlar tahlil qilinadi. Maqsad — bolalar tarbiyasida milliy qadriyatlarni qanday qilib samarali tarzda qo'llash va bu orqali ularda milliy va insoniy fazilatlarni rivojlantirishni ko'rib chiqishdir.

Xulosa. Maktabgacha ta'lim tizimida milliy qadriyatlar asosida tarbiya berish – yosh avlodni komil inson qilib voyaga yetkazishning eng muhim omillaridan biridir. Zero, milliy qadriyatlar xalqning asrlar davomida shakllangan hayot tajribasi, urf-odatlar, an'analari va ma'naviy boyliklarining ifodasidir. Bolalarda shu qadriyatlarni yoshlikdan singdirish ularning milliy o'zlikni anglashini, Vatanga, xalqiga, ota-onasiga, tabiatga hurmat bilan munosabatda bo'lishini ta'minlaydi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyachilarning pedagogik mahorati, o'yin va mashg'ulotlar jarayonida milliy elementlardan foydalanish, xalq og'zaki ijodi namunalari, milliy o'yinlar va ertaklar orqali tarbiya berish bolalarning ma'naviy dunyosini boyitadi. Shuningdek, bu jarayon yosh avlodni globalizatsiya sharoitida o'z milliy qadriyatlariga sodiq, ongli, vatanparvar va barkamol shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim-tarbiya berishning asosiy maqsad va vazifalari bolalarni aqliy va jismoniy jihatdan rivojlantirish va maktabga tayyorlash, ularning ruhiyati, shaxsiy qobiliyati, intilishi va ehtiyojlari milliy va umuminsoniy qadriyatlar hududiy xususiyatlarni hisobga

olgan holda rivojlanishni ta'minlash, ularni maktab ta'limiga tayyorlashdan iborat. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalash, ma'rifiy-madaniy tarbiyasida tabarruk dinimiz imkoniyatlari, buyuk ma'naviy-ma'rifiy merosimizdan foydalanish birinchi masala darajasiga olib chiqish, esa maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Nurulloyev F. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarini axloqiy tarbiyalash //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАТЦИЙ (buxdu.uz). – 2021
2. Xasanova. G.I “Ta'lim jarayonida dasturlashtirilgan o'qitish texnologiyasidan foydalanishning afzalliklari” Jizzax. 2020
3. G'ulomova D, Xudoyberdiyeva N. Maktabgacha ta'lim metodikasi .- Toshkent; Fan va texnologiya,2020
- 4.Hasanov.M. Ma'naviyat asoslari. – Toshkent; O'zbekiston ,2020
5. Rajabov.R. Bolalar tarbiyasida milliy qadriyatlarning o'rni.-Toshkent; Sharq 2018